

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожақеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдйбоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети


Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

1. Nodira Babadjanova O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIIY BARQARORLIK VA MAMLAKAT TARAQQIYOTINI TA‘MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – MUHIM OMIL.....	5
2. Laylo Begimqulova TEMURIY MALIKALARNING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida).....	13
3. Abduvali Berdiyev O‘ZBEK XONLIKLARINING ERON, AFG‘ONISTON, TURKIYA VA HINDISTON DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ELCHILIK ALOQALARI VA UNDAN KO‘ZLANGAN IQTISODIIY - SIYOSIIY MAQSADLAR.....	18
4. Alisher Jalilov SIYOSIIY ELITANING TURKISTONNI MILLIIY-HUDUDIIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI.....	27
5. Бахром Джалолов СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ БОЛАЛАРНИ ХУҚУҚИЙ ҲИМОЯЛАШ ТИЗИМИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	33
6. Sherzod Djurakulov САМАРҚАНД МУЗОФОТИНИНГ ЮҚОРИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	39
7. Саховат Захидова ХОЖАГОНИЙЯ-НАҚШБАНДИЙЯ ТАРИҚАТИ “ҲИМОЙАТ” ТИЗИМИНИНГ СЎНГГИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ИЖТИМОИЙ СИЁСАТИДАГИ ЎРНИ.....	44
8. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКISTON ЁШЛАРИНИ ХОРИЖДА ТАЪЛИМ ОЛИШЛАРИДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	49
9. Энажон Нишанбаева ИЖТИМОИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА).....	57
10. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТЛИК АДАБИЁТ ВА САНЪАТ НАМОЁНДАЛАРИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	63
11. Gulxayo Xasanboyeva O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR.....	69
12. Рашид Холмуродов ТАРИХЧИЛАР ТОМОНIDАН O‘LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O‘RGANILISHI.....	73



Nodira Abdullayevna Babadjanova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

**O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIIY
BARQARORLIK VA MAMLAKAT TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA
MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK – MUHIM OMIL**

For citation: Nodira A. Babadjanova. INTERNATIONAL HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE ARE AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING SOCIAL STABILITY AND DEVELOPMENT OF THE COUNTRY AT A NEW STAGE OF NATIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 12, pp.5-12

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14497500>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston respublikasining ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat ekanligi, ijtimoiy barqarorlik hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarining ahamiyati ko'rsatib berilgan. O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosda amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, millat, til, din, fuqaro, huquq, milliy madaniyat, an'ana, urf-odatlar.

Нодира Абдуллаевна Бабаджанова,
кандидат исторических наук, доцент
кафедры истории Узбекистана

Узбекского государственного университета мировых языков

**МЕЖДУНАРОДНАЯ ГАРМОНИЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ –
ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И
РАЗВИТИЯ СТРАНЫ НА НОВОМ ЭТАПЕ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ
УЗБЕКИСТАНА**

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается тот факт, что Республика Узбекистан является многонациональным и многоконфессиональным государством, важность межэтнического согласия и религиозной толерантности в обеспечении социальной стабильности и развития

государства и общества. На новом этапе национального развития Узбекистана обеспечить межнациональное согласие и толерантность в обществе, укрепить атмосферу дружбы и чувства большой многонациональной семьи, воспитывать молодежь в духе любви и верности своему народу Родины, в духе уважения национальных и общечеловеческих ценностей, научно анализируются широкомасштабные работы, направленные на расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами.

Ключевые слова: Конституция, закон, нация, язык, религия, гражданин, закон, национальная культура, традиции, обычаи.

Nodira A. Babadjanova,
Uzbek State University of World Languages,
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences

INTERNATIONAL HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE ARE AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING SOCIAL STABILITY AND DEVELOPMENT OF THE COUNTRY AT A NEW STAGE OF NATIONAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article emphasizes the fact that the Republic of Uzbekistan is a multinational and multi-confessional state, the importance of interethnic harmony and religious tolerance in ensuring social stability and development of the state and society. At a new stage of national development of Uzbekistan, ensure interethnic harmony and tolerance in society, strengthen the atmosphere of friendship and feelings of a large multinational family, educate young people in the spirit of love and loyalty to their people. Motherland, in the spirit of respect for national and universal values, large-scale works aimed at expanding cultural and educational ties with foreign countries are scientifically analyzed.

Index Terms: Constitution, law, nation, language, religion, citizen, law, national culture, traditions, customs.

1. Dolzarbli:

O'zbekiston - ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. O'zbekistondagi ijtimoiy barqarorlikni hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini mamlakatda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatning o'zaro totuvligisiz, rasman ro'yhatdan o'tgan 16 diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi bag'rikenglik munosabatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, eng katta yutug'imiz bu – millatlararo do'stlik, fuqarolar totuvligi, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligidir.

Bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. Oradan 30 yil o'tgach, bu son 91 taga, 1959-yili 113 taga, 1979-yili 123 taga yetgan. Bugungi kunda respublikamizda 138 ta millat va elat vakillari inoq, tinchlik va osoyishtalikda yashab kelmoqda. Ularning huquq va erkinligi, manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, an'ana hamda qadriyatlarini saqlash, rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi.

So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Konstitutsiya va qonunlarda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Shuningdek, ularga o'z

milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar va shart - sharoitlar yaratilgan.

Chindan ham, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida O'zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, "fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgani holda" qabul qilgani alohida ta'kidlangan. Shu ma'noda, Asosiy Qonunimiz – biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki g'urur-iftixor, kerak bo'lsa, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir huquqiy himoya hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi qayd etilgan. Shu asosda hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilayotgani, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilayotgani, tele-radio ko'rsatuvlari va eshittirishlari esa 12 tilda efirga uzatilayotgani juda muhimdir.

Bosh Qomusimizning 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi" degan norma belgilab qo'yilgan. Ana shu konstitutsiyaviy talabdan kelib chiqib, o'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz fuqaroligiga qabul qilish, chegara munosabatlarini tartibga solib, og'a-ini, qardosh-birodar bo'lib yashagan xalqlarning azaliy munosabatlarini qayta tiklash, uysizlarga uy berib, muhtojlarga muruvvat ko'rsatish, davlat idoralarini to'la-to'kis xalq uchun xizmat qildirish kabi uzoq yillar davomida o'z yechimini kutgan bunday og'riqli muammolarni hal etish oson kechgani yo'q. Tabiiyki, bularning barchasi — yuksak aql-idrok, donishmandlik, oqilona siyosat, fidoyilik va matonat mahsuli.

Konstitutsiyamizning 19-moddasi talabiga ko'ra, "...O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev qayd etganidek, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat'i nazar O'zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi o'zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishini, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e'lon qiladi va kafolatlaydi"[1].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrdagi "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5876-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabr kuni "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 1018-son qarori hamda boshqa bir qator huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik kabi usullardan foydalangan holda, O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy barqarorlik va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – muhim omil ekanligi ilmiy o'rganildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Bugungi kunda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 138 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatan taraqqiyotiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya — O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o'z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda, quyidagilar shular jumlasidandir:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish;

jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish bo'yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O'zbekiston xalqining tarixi va an'alarini o'rganish bo'yicha ta'lim, axborot va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Ma'lumki, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirish maqsadida, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar etib belgilangan:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish;

O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan va 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Bu dasturilamal hujjatning beshinchi ustuvor yo'nalishi "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish"[2] deb nomlangani bejiz emas.

Chunki davlatning mustaqilligi va suverenitetini, mintaqamizda xavfsizlik, barqarorlik hamda ahil qo'shnihilik muhitini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida yurtimizning nufuzini oshirish yo'lida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni yanada kuchaytirish, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaqin qo'shnihilik muhitini yaratishga qaratilgan o'zaro manfaatli va amaliy siyosat yuritish davr talabidir.

Bularning barchasi, o'z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etdi. Shu sababli davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-mayda "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] PF-5046-sonli farmoni qabul qilindi.

O'zbekistonda milliy siyosatni bevosita hayotga tatbiq etayotgan tashkilotlardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi ushbu farmonga binoan Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida tashkil qilingan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u o'z faoliyatini yuritmoqda hamda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Yurtboshimiz tashabbuslari asosida keyingi davrda mamlakatimiz hayotining turli sohlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar sur'ati va samarasi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya – O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olijanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o'z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Jumladan:

birinchidan, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish;

ikkinchidan, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish bo'yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

uchinchidan, millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O'zbekiston xalqining tarixi va an'analarini o'rganish bo'yicha ta'lim, axborot va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish; millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar

xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlarni takomillashtirish bugungi islohotlarning dolzarb talabidir.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 15-noyabrda "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon[4] qabul qilingani ayni muddao bo'ldi.

Davlatimiz rahbari ayni sohada imzolagan ikki hujjat, ya'ni 2017-yil 19-maydagi va 2019-yil 15-noyabrdagi farmonlari bir-birini qaysi jihatlar bilan to'ldiradi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 19-maydagi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ta'sirchan tashkiliy-institutsional chora-tadbirlarni o'zida qamragan.

Bu haqda fikr yuritganda, avvalambor, shu paytgacha qadar faoliyat yuritib kelgan ikkita yirik tuzilma—Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilganini ta'kidlash lozim.

Buning natijasida Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do'stlik jamiyati yagona Qo'mita negizida birlashdi. Endilikda ushbu Qo'mita jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirmoqda. Hozirda Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami 151 ta milliy madaniy markaz, 38 ta do'stlik jamiyati va xorijdagi vatandoshlarning 38 ta jamiyati bilan hamkorlik qilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari tegishli hududlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanmoqda.

O'z navbatida, davlatimiz rahbarining 2019-yil 15-noyabrdagi farmoni asosida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirishga doir eng muhim vazifalar belgilab berildi. Bu istiqbolli vazifalar 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari doirasida amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Birinchidan, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Ikkinchidan, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi tasdiqlandi.

Uchinchidan, 2019–2021-yillarda Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Bugungi kunda mazkur Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"ning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi izchil shug'ullanmoqda. Bunda Prezidentimiz Farmoni doirasida ushbu Qo'mitaning tuzilmasi yanada takomillashtirilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu o'rinda, avvalo, Qo'mita tarkibida Millatlararo munosabatlar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi tashkil etilgani haqida gap bormoqda. Bugungi kunda yangi Markaz millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, shu jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar rivojining monitoringini olib bormoqda.

Bundan tashqari, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiyaning asosiy vazifasi jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldidagi tengligini ta'minlashga qaratilgan millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va tartibga solishdan iborat.

Ayni paytda Komissiya millatlararo munosabatlar sohasida ishlar holatining joylarga chiqib tizimli o'rganilishini tashkillashtirmoqda. Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirishda Qo'mita, shuningdek vazirlik va idoralar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, qilingan ishlar to'g'risida ularning rahbarlari hisobotlarini doimiy ravishda eshitish ishlari tizimli asosda yo'lga qo'yilganida, shubhasiz, sohadagi ana shu tub yangilanishlar ulkan o'rin tutadi.

Yana bir muhim jihat: Prezidentimiz 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini qayd etib, BMT Bosh Assambleyasining rezolyusiyasi bilan har yili 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanishi, shu bois mazkur sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etgani yurtimizda istiqomat qiluvchi ko'p millatli fuqarolarimizni benihoya quvontirdi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 10 fevraldagi Qonuniga asosan, mamlakatimizda 30 iyul – Xalqlar do'stligi kuni etib belgilangan. Bu Qonun hududida 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari o'zaro ahillikda istiqomat qiladigan O'zbekiston jamiyatida xalqlar va davlatlar o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgani bilan juda muhimdir.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalarga to'xtalib, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish bo'yicha taklif bildirgandi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasi 51-yig'ilishida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi 193 ta a'zo mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi.

"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasining aynan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilishida o'ziga xos ramziy ma'no bor. Bugun millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi O'zbekiston namunasi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Binobarin, ona zaminimizda dinlararo bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik chuqur tarixiy ildizlarga ega.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 2022-yil 1-chorakdagi ijrosi yuzasidan Jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash maqsadida Qo'mita zimmasiga qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda "Yo'l xaritasi"ning 269, 270, 271, 272, 273, 315, 316 va 319 bandlari ijrosi yuklatilgan. Davlat dasturida belgilangan bandlar ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'mita boshchiligidagi vazirlik va idoralar vakillaridan iborat Ishchi guruhlar tuzildi. Dasturda Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, Jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2022-2024-yillarda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqish, turli millat yoshlari bilan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy

axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda do‘stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash, hech shubhasiz, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma‘naviy sohalarida shiddatli islohotlarni izchil amalga oshirish hamda xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi. Bu hayotiy haqiqat amalda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Eng muhimi, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan millatlararo munosabatlar, mamlakatimizda yashab kelayotgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an‘analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar samaralari xalqaro tashkilotlar, qolaversa, keng jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilmoqda. O‘zbekistonning bu boradagi sa‘y-harakatlari, bir tomondan, Konstitutsiya va Harakatlar strategiyasi, ikkinchi tomondan, mamlakatimiz qo‘shilgan xalqaro shartnomalar, jumladan, BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlariga to‘la hamohangdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

[1] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/3210345> 3. <https://xs.uz/uzkr>

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-munosabatlar-sohasida-ozbekiston-respublikasi-davlat-siyosati-kontsepsiyasini-tasdiqlash-togrisida>

[4] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

[5] Xalq so‘zi, 2017-yil 23-may.

[6] <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-munosabatlar-sohasida-ozbekiston-respublikasi-davlat-siyosati-kontsepsiyasini-tasdiqlash-togrisida>

[7] <https://yuz.uz/uz/news/millatlararo-hamjihatlik--dunyoviy-davlatning-muhim-omili->

[8] <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/millatlararo-totuvlik-va-hamjihatlik-jamiyatning-gullab-yashnashiga-va-davlatning-barqaror-rivojlanishiga-xizmat-qiladi>

[9] Karimova E. O‘zbek tolerantligining o‘ziga xos xususiyatlari. -T.: “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2006. –B.17-18.

[10] Rajapova M. Ko‘p millatli ahil oila. // “Jamiyat va boshqaruv” ilmiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-tarixiy jurnal. №3, 2007 yil.

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000